

**TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV JARAYONIDA JINOYAT
PROTSESSI ISHTIROKCHILARIDAN TUSHUNTIRISHLAR OLISHDA VA
ULARNING HUQUQ VA ERKINLIKLERINI HIMoya QILISHDA YUZAGA
KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

Aliyeva Aziza Utkirovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 1-o 'quv kursi 107-guruh kursanti

Annotatsiya: *Maqolada tergovga qadar tekshiruv jarayonida jinoyat protsessi ishtirokchilaridan tushuntirishlar olishda va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etishga oid masalalar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Tergovga qadar tekshiruv, tushuntirish berish, tushuntirish xati, ko'rsatuv berishdan bosh tortish, guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatma berishdan bo'yin tovlashi, yolg'on guvohlik berish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklari.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatning turli jabhalarida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Shular qatori, sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlarni va ularni yuzasidan qilinayotgan ishlarni alohida e'tirof etish joiz. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi da mamlakatimizdaadolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur sifatida belgilanib yurtimizda "Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar" tamoyilini bosh mezonga aylantirish[1] masalasiga alohida urg'u berilgan. Xususan, Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida huquqiy davlat barpo etish va unda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashdagi rolini inobatga olib, "Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat", deb ta'kidlaganlarini aytib o'tish joiz[2]. Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlash har bir davlat organining asosiy vazifikasi hisoblanadi. Zero, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi[3]. Bu tamoyillar Konstitutsiyamizda aniq belgilab berilgan bo'lsada, ular amalda o'zining to'liq ijrosini topmoqda deya olmaymiz. Buning muhim sabablaridan biri tergovga qadar tekshiruv jarayonida fuqarolarning huquqlari va erkinliklari davlat organlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan cheklanishi, poymol qilinishining ehtimoli ko'pligi bilan bog'liq. Shuning uchun ham bugungi kunda huquqiy normalarni erkinlashtirish va yangilash tergov organlari faoliyatining tashkiliy shakllarini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini har tomonlama chuqr o'rganib chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tergov organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida keyingi paytlarda bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Tergovga qadar tekshiruv davomida protsess ishtirokchilaridan tushuntirishlar olish va bu tushuntirishlarni protsessual hujjatlarda rasmiylashtirish, shuningdek ulardan isbotlash jarayonida foydalanish masalalariga

alohida e'tibor qaratish dolzarb masala ekanligi o'z isbotini topmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018-yilning 14-may kuni “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomilllashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3723-sonli qarorida jinoyat-protsessual qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonzhli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi[4].

Jinoyat-protsessual huquq tizimida tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish borasida ushbu hujjatning ahamiyati beqiyos bo'lib, unda bevosita tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir chora-tadbirlar, jinoyat alomatlari bor yoki yo'qligini aniqlash maqsadida ayrim protsessual va tergov harakatlarini amalga oshirishning optimal mexanizmlarini yaratish vazifalari belgilab berildi.

Darhaqiqat, ishni sudga qadar yuritish bosqichining dastlabkisi bo'lган tergovga qadar tekshiruv jarayonini tartibga soluvchi normalarni tahlil qilar ekanimiz, ushbu jarayonda bir qator muammoli vaziyatlar mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Barchamizga ma'lumki, tergovga qadar tekshiruv jarayonida ish yuritish ariza yoki xabar kelib tushgan vaqtan boshlanib to jinoyat ishini qo'zg'atish jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki ariza va xabarni tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish to'g'risida qaror chiqarish bilan yakunlanadi. Shuningdek, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 3202-moddasiga muvofiq tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir choralarni o'z ichiga oladi[5].

Tergovga qadar tekshiruv Jinoyat-protsessual kodeksining 391-moddasida ko'rsatilgan tergovga qadar tekshiruv organlari mansabdor shaxslari, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan olib boriladi. Ya'ni tergovga qadar tekshiruv organlari mansabdor shaxslari surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi bilan darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligi va asoslar yetarli ekanligini tekshirish zarurati bo'lган taqdirda esa o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkazilib, uning davomida qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, hodisa sodir bo'lган joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, taftish tayinlash hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi[5]. Ya'ni tergovga qadar tekshiruv davrida beshta tergov harakatlari va bir nechta protsessual harakatlar amalga oshirilishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruv olib boruvchi mansabdor shaxs tergovga qadar tekshiruv yakunida jinoyat ishini qo'zg'atish haqida, ishni qo'zg'atishni rad qilish haqida va ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuboorish haqida qarorni qabul qiladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 94-moddassiga muvofiq ish bo'yicha qabul qilinadigan qaror sinchkovlik bilan to'la, har tomonlama va xolisona tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo'lishi lozim ekanligi ifodalangan[6].

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida to'plangan dalillar esa aksariyat hollarda hal qiluv qarori qabul qilish uchun yetarli va ishonchli bo'lmaydi yoki ushbu jarayonda to'plangan ma'lumotlar daliliy ahamiyat kasb etmaydi. Bu esa o'z navbatida tergovga qadar tekshiruv jarayonini tartibga soluvchi normalarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi[7].

Jinoyat-protsessual kodeksining 90-moddasi birinchi qismida ma'lumotlar va narsalardan, ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasiga qayd etilganidan keyingina dalil sifatida foydalanishi mumkinligi ifodalangan.

M.G.Kovaleva esa jinoyat to'g'ridagi xabarda jinoyat alomatlarining mavjudligini aniqlash uchun har qanday harakatlar natijasida olingan ma'lumotlar asos bo'lmasligini qayd etib, sodir bo'lgan voqeanning huquqiy tavsifidagi noaniqlar qonunda belgilangan tergovga qadar tekshiruv harakatlari natijasida o'tkazilishi va o'r ganilishi shart deb hisoblagan[8].

Bu borada L.M.Volodinaning fikriga ko'ra "Taxminga asoslangan xulosa qabul qilinayotgan qaror uchun yetarli kafolat bo'la olmaydi"[9].

V.G.Kosixning fikricha, "Tergovga qadar tekshiruv davrida – hattoki arizachi qilmishning barcha tafsilotlarini bayon qilgan bo'lsa ham ushbu xabarga asoslanib jinoyat ishini qo'zg'atish uchun zarur bo'lgan hajmdagi axborotga ega bo'lishning imkon yo'qdir"[10].

Darhaqiqat, bu holda kamida arizachining shaxsini aniqlash, uni yolg'on xabar bergenlik uchun JK ning 237-moddasi bilan javobgarlikka tortish bo'yicha ogohlantirish zarur bo'ladi, bu esa aynan tergovga qadar tekshiruvning tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki ushbu faoliyat tufayli jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sababning haqqoniyligi aniqlanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning aksariyatiga qo'shilgan holda, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ma'lumotlar yoki dalillar faqat qonunda belgilangan tartibda o'tkazilgan tergov natijasida to'plangan bo'lishi lozimligini qayd etish mumkin.

Bugungi kunda tergov amaliyotida tergovga qadar tekshiruv jarayonida jinoiy hodisa yuz bergen yoki bermaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalovchi hujjat sifatida tergovga qadar tekshiruv jarayonini olib borayotgan shaxslardan olinadigan tushuntirishlar keltirilgan. Biroq amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida tushuntirishlar olish tartibi keltirib o'tilmagan.

B.A.Rajabovning fikricha, tushuntirish xati bu – dalillarni to'plash vakolatiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan ish yuritish davomida unga aloqador haqiqiy ma'lumotlar va holatlarni aniqlash maqsadida fuqarolardan va mansabdor shaxslardan ularning roziligi bilan yozma ma'lumotlarni olishdan iborat protsessual harakat ekanligi keltirib o'tilgan[11].

E'tiborlisi shundaki, tergovga qadar tekshiruv jarayoni yakunida tergovga qadar tekshiruvni olib boruvchi vakolatli shaxslar tushuntirish xatiga qo'yilgan talablar va ularni olish tartibi mavjud bo'limgaganligi hamda mazkur protsessual harakat tergov harakati sifatida e'tirof etilmaganligi sababli unda dalil sifatida murojaat qilishlari noto'g'ri bo'lmoqda.

Tergovga qadar tekshiruv davrida ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirish xatida ifoda etgan ma'lumotlarni faqatgina ma'lumot sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Qonunchiligidiz talabiga ko'ra faqatgina qonunda belgilangan tartibda olingan ma'lumotlar daliliy ahamiyatga ega[12].

Asosiy e'tibor qaratadigan jihat shundaki, tergovga qadar tekshiruv jarayonida jinoyat protsessi ishtirokchilaridan tushuntirsh olayotgan shaxs Jinoyat kodeksining 238-240-moddalari bilan javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirilishi yoki ogohlantirmaslik masalasi haligacha ochiq qolmoqda. Buni kengroq yoritadigan bo'lsak, tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslardan o'ziga ma'lum bo'lgan holat bo'yicha tushuntirish xati olinadi. Tushuntirish xati olayotgan mansabdar shaxs Jinoyat Kodesining 238-240-moddalari bilan protsess ishtirokchisini javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantiradi. Bu qoida qanchalik to'g'ri? Amaldagi Jinoyat kodeksining 240-moddasini sharhlaydigan bo'lsak, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov vaqtida yoki sudda guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuv berishni yoxud ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo'yin tovashi natijasida shaxs javobgarlikka tortilishi belgilangan. Obyektiv tomondan mazkur jinoyat guvoh yoki jabrlanuvchining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov vaqtida yoki sudda guvohlik berishdan yo bo'lmasa ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo'yin tovashi natijasida sodir etiladi[13]. Bundan kelib chiqadiki, tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslardan tushuntirish xati olayotgan paytda ularni JK ning 240-moddasiga muvofiq, ya'ni ko'rsatuv berish yoki bu ishdan bo'yin tovashi natijasida kelib chiqadigan javobgarlik bo'yicha ogohlantirish qonuniy hisoblanadi. Shunda o'rinni savol paydo bo'ladi. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslardan tushuntirish xati olayotgan paytda JK ning 238-moddasi bilan ogohlantirish qanchalik asosli? Demak, bunday holatda JK ning 238-moddasini sharhlaydigan bo'lsak, "Yolg'on guvohlik berish", ya'ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov jarayonida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib yo'lg'on xulosa berishi, xuddi shuningdek tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi natijasida kelib chiqadigan javobgarlik belgilangan.

JK ning 238-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi, jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi, ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa berishi, tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi harakatlaridan biri bajarilishida ifodalanadi[14]. Ushbu harakatlarning barchasi sudda yoxud surishtiruv yoki dastlabki tergov davrida bajarilishi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, JK ning 238-moddasi bilan shaxsni javobgarlikka tortish bo'yicha ogohlantirish faqat sudda, surishtiruv va dastlabki tergovda qilish mumkin. Ammo shaxslardan tushuntirish xati olish, tergovga qadar tekshiruv davrida amalga oshiriladi. Bunda shaxslarni JK ning 238-240-moddasi bilan shaxslarni ogohlantirgan holda tushuntirish xati olish keyinchalik dalillar nomaqbulligiga olib keladi. Lekin shaxs faqatgina ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi uchun javobgarlikka tortiladigan bo'lsa, shaxsda bemalol o'z ko'rsatmalarini o'zgartirishi va yolg'on ma'lumotlar berish huquqi vujudga keladi. Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv jarayonida mansabdar shaxslar tomonidan, asosan, gumon qilinuvchi, mutaxassis,guvoh va jabrlanuvchilardan tushuntirish xati olinadi. Ammo, shaxslar guvoh va jabrlanuvchi

sifatidagi maqomga faqat jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng ega bo'ladilar. Ammo, JK ning 240-moddasi dispozitsiyasidagi subyektlar sifatida guvoh va jabrlanuvchilar ko'rsatilgan. Bunday holatda, tergovga qadar tekshiruv jarayonida mansabdar shaxslar tomonidan tushuntirishlar olinadigan shaxslar qanday maqomga ega bo'lishlari ochiqligicha qolmoqda. Bunday holatning mavjudligi nafaqat tergovga qadar tekshiruv jarayoning samaradorligiga, balki surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining o'z ko'rsatmalarini o'zgartirishlariga imkoniyat yaratib kelgusida sud muhokamasida dalillarning nomaqbuliligiga olib keladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi JK ning 238-moddasini quyidagi mazmundagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

“238-modda. Yolg'on guvohlik berish, ya'ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog'ida yoki sudda, tergovga qadar tekshiruvda qatnashuvchi shaxslar guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatu berishi yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa berishi, xuddi shuningdek tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi —

Ikkinchi qismi esa quyidagicha:

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoxud ishni sudda ko'rish chog'ida yolg'on ko'rsatuvlar berish uchun guvohni yoki jabrlanuvchini yoki yolg'on xulosa berish uchun ekspertni yoxud noto'g'ri tarjima qilish uchun tarjimonni pora evaziga og'dirib olish, xuddi shuningdek ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish orqali yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilish

Bundan tashqari, protsess ishtirokchilaridan jinoyat sodir etilganlik holati bo'yicha tushuntirish xati olayotganda ularning huquqiy maqomini belgilash maqsadida Jinoyat-protsessual normaga tergovga qadar tekshiruvda qatnashuvchi shaxslarning maqomi va ularning huquq va majburiyatlarini kiritish;

Tergovga qadar tekshiruv jarayonining samaradorligini oshirish va ushbu jarayon yakunida qabul qilinadigan qarorning adolatli va qonuniy bo'lishini ta'minlash maqsadida ushbu bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lган tergov harakatlari doirasini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Vakolatli organning mansabdar shaxslari tergovga qadar tekshiruv jarayonida amalga oshiriladigan tergov va protsessual harakatlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazishlari va qonun normalariga to'liq rioya etishlari shart.

Jinoyatga oid ariza va tushuntirishlarni qonuniy hal etishda o'tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov qonun normalariga rioya qilinib o'tkazilishi va barcha qarorlar ish uchun ahamiyatli bo'lган dalillar asosida hal etilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, jinoyat protsessining dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'luvchi tergovga qadar tekshiruv o'z ichiga tergovga qadar tekshiruvlarni o'tkazishdek murakkab vazifalarni oladi. Shuning uchun ushbu jarayonda yo'l qo'yilgan har bir kamchilik inson taqdiri bilan bo'liq bo'lib, kelgusida salbiy oqibatlar kelib chiqmasligi uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida fuqarolardan tushuntirishlar olishda

qonun normalariga to’liq rioya etish lozimligi, aks holda bunday holat keyinchalik dalillarning nomaqbulligiga olib kelishi mumkinligini unutmaslik lozim. Kichik izlanishimizda esa biz aynan shu jihatlarga ahamiyat qaratishga harakat qildik.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

- 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”-T.2022.[1]
- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi” –T. 2022-yil 20-dekabr [2]
- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.2022[3]
- 2018-yilning 14-may kuni “Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-3723-sonli qarori. – B.149[4]
 - O’zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi <https://lex.uz/docs/111460> [5]
 - Botaev M.D. Dastlabki tergovning isbotlash jarayonida jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog‘liq ayrim muammolar // O’zbekiston Respublikasi IV Akademiyasining axborotnomasi. – 2012. – № 1. – B. 80-83 (12.00.12; № 12).[6]
 - Botaev M.D. Tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish // Huquq va burch. – 2020. – № 7. – B. 56-57 (12.00.12; № 2).[7]
 - Ковалева М.Г. Возбуждение уголовного дела и обеспечение его законности и обоснованности: Дис. . канд. юрид. наук. – СПб., 2005. –C.13.[8]
 - Володина Л.М. Механизм обеспечения прав личности в российском уголовном процессе автореф: Дис. . д-ра юрид. наук. – Екатеринбург, 1999. – C. 150.[9]
 - Косых В.Г. Расширение перечня оснований для продления срока проверки заявлений и сообщений о преступлениях // Уголовный процесс. – № 4. – 2007. – С. 18.[10]
 - Jinoyat-prosessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. // y.f.d..prof. G.Z.To’laganova. y.f.n.. dots. S.M.Rahmonovalarning umumiy tahriri ostida. – Toshkent. TDYU, 2017. – B. 180.[11]
 - Гирько С.И. Деятельность милиции в уголовном процессе. – М., 2006. – C. 235-236.[12]
 - M.X.Rustamboyev Jinoyat kodeksiga sharh – T. 2016. – B.[13]
 - O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi //URL:<http://www.lex.uz> [14]